

BALOG‘AT VA YETUKLIK DAVRIDA SHAXS RIVOJLANISHINING UMUMIY PSIXOLOGIK MEZONLARI

Latipova Umida Yusufboyevna,

Urganch davlat universiteti,

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsent v.b

E-mail: ulatipova933@gmail.com

Tel.: +998975130486

Annotatsiya: Ushbu maqolada balog‘at va yetuklik davrining umumiy psixologik xususiyatlarining ilmiy nazariy va uslubiy asoslari yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlik davri, yetuklik davri, emotsiya, shaxs, extiyoj.

Аннотация: В этой статье рассматриваются научные теоретические и методические основы общих психологических особенностей подросткового и взрослого возраста.

Ключевые слова: Период юности, период зрелости, эмоция, личность, желание.

Annatation: This article discusses the scientific theoretical and methodological foundations of the general psychological characteristics of adolescence and adulthood.

Keywords: Period of youth, period of maturity, emotion, personality, desire.

Bugungi kunda mamlakatimizda insonlarning jismoniy, iqtisodiy, ma’naviy, hamda ruhiy holatini yaxshilash borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. Kun.uz saytidagi ma’lumotlarga ko‘ra O‘zbekiston aholisining o‘rtacha yoshi qancha ekani to‘g‘risida ma’lumot taqdim etildi. Unga ko‘ra 2023 yilda O‘zbekiston Respublikasi aholisining o‘rtacha yoshi 29 yoshni tashkil etgan.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, jinsi bo‘yicha:

erkaklar uchun – 28,3 yosh;

ayollar uchun – 29,7 yosh o‘rtacha ko‘rsatkich sifatida qayd etilgan.

Ma’lumot uchun, 2023 yilda O‘zbekistonda doimiy aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 74,7 yoshni tashkil etgan[1].

Bundan ko‘rishimiz mumkinki ushbu yosh davri O‘zbekiston aholisining katta qismini tashkil etadi. Bu davr ilmiy psixologik adabiyotlarda yoshlik davri, ayrim yosh turkumlashtirishda esa yetuklik davri sifatida o‘rganiladi.

Z.T.Nishanova tahriri ostidagi “Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya” darsligida esa yetuklik davri quyidagicha izohlanadi. Yetuklik ontogenezdagi nisbatan uzoq davom etadigan davrlardan biridir. Odatda yetuklikning uch bosqichi ajratiladi:

- ilk yetuklik (yoshlik);
- o‘rta yetuklik;
- yetuklik (qarilik va keksayish)[2].

Bundan tashqari Gamezo M.V. tadqiqotlarida esa bu yosh davrining chegaralari va xususiyatlari alohida yondashuvga ega. Eslatib o‘tamiz, bu chegaralar juda shartli, nisbiydir: inson rivojlanishining yangi bosqichining boshlanishi ijtimoiy va biologik sabablar majmuasi bilan belgilanadi va uning individual rivojlanishining o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga bog‘liq. Bunday chegara belgilari ham mavjud: ayollar uchun 17-18 yoshdan 55 yoshgacha, erkaklar uchun 60 yoshgacha (yuqori chegara pensiya bilan belgilanadi). Bizning boshlang‘ich pozitsiyamizni hisobga olgan holda va shaxsning hayot yo‘lining asosiy bosqichlarini tavsiflashda yanada tabaqalashtirilgan yondashuv maqsadida biz 25-30-40-45 yosh chegaralaridagi balog‘at davrini ko‘rib chiqishga e‘tibor qaratamiz[3].

Professor E.G‘.G‘oziyev tahriri ostidagi “Ontogenez psixologiyasi” darslikda esa ushbu yosh davri xususiyatlari shunday bayon qilingan. Yoshlik davri 23-28 yoshlardan iborat bo‘lib, bu davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida kamolga erishgan shaxs sifatida faol ishtirok etish va ishlab chiqarishda mehnat faoliyatini amalga oshirishdan iboratdir. Yoshlarning mehnat faoliyati quyidagi uchta muhim belgisi bilan boshqa yosh davrlaridan farqlanadi:

1) mutaxassislikning mohiyatiga, ishlab chiqarish shart-sharoitiga va mehnat jamoasi a‘zolarining xususiyatiga moslashish (ko‘nikish) - mehnat faoliyatining dastlabki yillari (taxminan 1 yildan 3 yilgacha) yoki jamoada o‘z o‘rnini topish va qadr-qimmatga erishish;

2) mutaxassis sifatida o‘zini takomillashtirish uchun ijodiy izlanishni amalga oshirish (mehnat faoliyatining ikkinchi pallasi - 3 yildan 8 yilgacha - ish staji nazarda tutiladi) yoki kasb-korlik, mahoratini egallash;

3) mahorat sirlaridan foydalanish, tashabbus ko‘rsatish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ijtimoiy yetuklikni namoyish qilish yoki mehnat

faoliyatidagi barqaror ijod bosqichida bir tekis 10 yillab ishlab sifatli mahsulot yaratish namunasini ko'rsatish[4].

Hayotning ushbu bosqichida, yoshlik davrida inson o'zini to'liq anglab yetadi, aslida, u xuddi shu vazifa oldida turadi - hayotning yangi sharoitlarida o'zini aniqlashni izlash, haqiqiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda (shu jumladan, ilgari ular tomonidan e'tiborga olinmagan cheklovlar). Bu yoshlik inqirozi uning yangi yoshga - katta yoshga o'tishini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash joizki, "o'ttiz yosh inqirozi" - bu shartli nom. Bu holat ham erta, ham kechiktirishi mumkin, bu holat haqida inqirozli his-tuyg'ular hayot yo'li davomida bir necha marta paydo bo'lishi mumkin (bolalik, o'smirlik, yoshlik davrida bo'lgani kabi), chunki rivojlanish jarayoni bir oqim bo'yicha ketadi, hech qachon to'xtamaydi[3].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki ushbu davr inson hayotining eng asosiy o'sish yani shaxsiy, kasbiy kamolotini yuzaga chiqarish bosqichi bo'lib bu davrni tadqiq etish ilmiy psixologiyaning dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Kun.uz 07:50 / 12.04.2024.
2. Nishanova, Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya darslik /— Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018. - 600 b.
3. Гамезо М.В., Петрова Е.А., Орлова Л.М., 2003 © Педагогическое общество России, 2003.
4. E. G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi/darslik /.Tosbkent:"NIF MSH", 2020, 288 bet.